

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Nemis tili xorijiy til sifatida darsliklarining sifatini tekshirish haqida	247
S.Z.Yoʻldoshev	
Sport faoliyati yoʻnalishi talabalariga valeologiya fanini oʻqitishning didaktik imkoniyatlari	251
I.O.Umarov	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida oʻquv-jangovar sifatlarni rivojlantirishning taʼlim texnologiyasi	256
Sh.M.Bazarbayeva	
Yettisuv viloyatida oʻlat epidemiyasiga qarshi kurash siyosati (1900-1910-yillar).....	264
O.X.Mahamadjonova	
Bolalar folkloriga oid oʻn ikki choʻp va lapar oʻyinlari tavsifi va taʼrifiga doir	268
G.A.Donisheva	
Tarixiy jihatdan til leksikasining oʻrganilish darajasi (Oybekning Navoiy romani misolida)	273
L.A.Xaitov	
Hakim termiziy merosida inson vujudi (borligʻi) va ruhiy uzviyligi, inson oʻzligi (nafsi) muammosi.	276
Sh.S.Kodirova	
Teaching English language to geology students	280
S.S.Xoʻjiyeva	
Maktab kimyo darslarida innovatsion metodlardan foydalanish	283
F.I.Sharipova	
Developing reading comprehension at future nurses	288
U.B.Usmonova	
Sarlavhalar publitsistik matnning muhim qismi	294
K.X.Avazov	
Региональное и международное сотрудничество в целях обеспечения безопасности, стабильности в Центрально-Азиатском регионе	297
A.N.Qosimov	
Sport vositasida oʻquvchilarda milliy oʻzlikni anglash va gʻurur-iftixot tuygʻusini shakllantirishning pedagogik zarurati	303
A.T.Nishonov	
OTM talabalarida axborot oqimini tahlil qilish koʻnikmalarini shakllantirishning pedagogik jihatlari	310
M.X.Tillavoldiyeva	
Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot oʻrtasidagi aloqadorlik muammolari	314
U.D.Xudoyorov	
Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi miqdor va sifat koʻrsatkichlarining xususiyatlari.....	318
S.U.Allayarova	
Oʻquvchilar lugʻat boyligini oshirishning lingvo-pedagogik xususiyatlari.....	325
Ch.T.Qurbonova	
Tabiiy geografiya va geoekologiyada GAT texnologiyalaridan foydalanish.....	329
Z.A.Kendjaeva	
Ilk, jahon dinlari va falsafiy qarashlarda shukronalikka munosabat.....	333
L.S.Sultonova	
Milliy qadriyatlarining innovatsion taraqqiyot talablari asosida rivojlantirish	338
Sh.T.Temirov	
Mir Muhammad Siddiq Hashmat shaxsiy kutubxonasining Buxoro ilmiy-adabiy muhitidagi oʻrni.....	341
S.X.Kaxxarov	
Yoshlarda harbiy vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishda harbiy madaniyat omili	346
A.R.Joʻrayev	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janri verbal, noverbal va lingvistik atributlarining oʻziga xosligi	351
M.C.Muxamedova	
Роль Музеев Узбекистана в жизни общества (начало XX века).....	356
G.J.Tulenova	
On the issue of implementation of projects on the development and practical	



UO‘K: 027.85(575.22)(093.2)

MIR MUHAMMAD SIDDIQ HASHMAT SHAXSIY KUTUBXONASINING BUXORO ILMIY-ADABIY MUHITIDAGI O‘RNI**МЕСТО ЧАСТНОЙ БИБЛИОТЕКИ МУХАММАДА СИДДИКА ХАШМАТА В НАУЧНОЙ И ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЕ БУХАРЫ****THE PLACE OF MUHAMMAD SIDDIQ HASHMAT'S PRIVATE LIBRARY IN THE SCIENTIFIC AND LITERARY ENVIRONMENT OF BUKHARA****Temirov Sherov To‘raevich** Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar”
kafedrasi katta o‘qituvchisi**Annotatsiya**

Maqola Mir Muhammad Siddiq Hashmat shaxsiy kutubxonasining buxoro ilmiy-adabiy muhitidagi o‘rniga bag‘ishlangan. Buxoro amirligida kutubxonalar davlatniki (kutubxonai dorul-amora), Arkdagi kutubxona, madrasalar qoshidagi kutubxonalar hamda xususiy kutubxonalar bo‘lgan. Bundan tashqari taqiqotlar natijasida amirlikning Qarshi, Shahrisabz, Samarqand, alohida shaxslar va amaldorlarning uylarida ham kutubxonalar mavjudligi aniqlangan. Tabiiyki, bu kutubxonalar qadimdan ilm va adab ahli uchun bilim maskani ham bo‘lganligi tahlil etilgan.

Аннотация

Статья посвящена месту личной библиотеки Мир Мухаммада Сиддика Хашмата в научной и литературной среде Бухары. В Бухарском эмирате существовали государственные библиотеки (кутубханаи дарул-амора), библиотека в Арке, библиотеки при медресе и частные библиотеки. Кроме того, в результате запретов было установлено наличие библиотек в домах частных лиц и чиновников в Карши, Шахрисабзе, Самарканде эмирата. Естественно, было проанализировано, что эти библиотеки с древних времен были местом знаний для людей науки и литературы.

Abstract

The article is dedicated to the place of Mir Muhammad Siddiq Hashmat's personal library in the scientific and literary environment of Bukhara. In the Bukhara Emirate, there were state libraries (kutubkhanai darul-amora), library in Ark, libraries under madrasas and private libraries. In addition, as a result of the bans, it was found that there are libraries in the homes of individuals and officials in Karshi, Shahrisabz, Samarkand of the emirate. Naturally, it has been analyzed that these libraries have been a place of knowledge for people of science and literature since ancient times.

Ключевые слова: Бухарский эмират, мангыти, эмир Музаффар, поэзия, история, антология, рукописная книга, библиотека.

Key words: Bukhara emirate, mangyti, emir Muzaffar, poetry, history, anthology, manuscript book, library.

Kalit so‘zlari: Buxoro amirligi, mang‘itlar, amir Muzaffar, she‘riyat, tarix, antologiya, qo‘lyozma kitob, kutubxona.

KIRISH

Har qanday xalqning ma‘naviy hayoti tarixida kitob va kitob madaniyati noyob hamda qimmatli yozuv yodgorliklari sifatida alohida o‘rin tutadi – bu mintqa xalqlarining nafaqat moddiy merosi, balki intellektual shaklda moddiy merosning asosi va eng boy qatlamidir.

Ma‘lumki, O‘rta Osiyoda kutubxonalar qadimdan mavjud bo‘lgan. Musulmon qo‘lyozma kitoblarini yaratish va ularning bezatilishi Movarounnahr islom davriga borib taqaladi, o‘shanda arablar Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari o‘rtasida shakllangan kitob an‘analarini o‘zlari bosib olgan mamlakatlarga olib kelganlar. O‘sha davridayoq kutubxonalar podshohlar, sultonlar va xalifalar saroylarida, yirik ilmiy-madaniy markazlarda, o‘quv yurtlarida bo‘lgan. Kitoblar to‘plamlari meros bo‘lib, oldi-sotdi, import va eksport obyektiga aylangan. Ko‘pgina o‘qimishli kishilar, mahalliy hukmdorlar, yirik amaldorlar, so‘fiylik tariqatlari yetakchilarining o‘z kutubxonalari, arxivlari bo‘lgan. Shuningdek, ular san‘atning mijozlari va homiylari, kitob biznesining homiylari sifatida harakat qilishgan. Bizga Samarqand va Buxorodagi Somoniylar, Urganchdagi G‘aznaviylar, Samarqand,

Buxoro, Hirotdagi Temuriylar va Shayboniylar davri kutubxonasi, ularning viloyat markazlari, O'rta Osiyo xonliklari hukmdorlarining XX asr - bosh shaharlardagi poytaxt shaharlaridagi kutubxonalar ma'lum. Odatda kutubxonalar ham davlat boyligi va hukmdor xazinasining bir qismi hisoblangan. Shu bilan birga, fanda bunday omborlarning shakllanishi haqida juda kam ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularni tashkil etish, boshqarish, faoliyat yuritish va moliyalashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar ham kam.

O'rta Osiyodagi xususiy kutubxonalar qatorida Muhammad-Porso, Jo'ybor shayxlari, shahzoda Mir Muhammadsiddiq ibn amir Muzaffar Hashmat (1862-1927), Muhammad-Sharif Sadri Ziyo, Qozi Burhoniddin (1920 yil sentabrda o'ldirilgan), Vyatkin V.L., Abdurauf Fitrat (1937 yilda o'ldirilgan), Behbudiy (1919 yilda o'ldirilgan), A. A. Semenov va boshqalar kutubxonalarini misol sifatida keltirish mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMA

XX asrning boshlarida Buxoro shahrida an'ana tariqasida davom etayotgan kutubxonalar barpo etish, kitoblar jamlash, uning savdo-sotig'i bilan mashg'ul bo'lish aholining turdi tabaqa namoyondalarida rasm bo'lgan. Kitoblar majmui Arkda, amir amaldorlarining uylarida, hukmron sulola vakillarining qo'llarida, savdogarlar va hunarmandlar hovllarida, turli tariqat piru murshidlarda, madrasalar qoshidagi kutubxonalar va boshqa joylarda mavjud bo'lgan.

Zamondoshlar xotiralariga qaraganda Buxoroda uchinchi katta kutubxona amirzoda Muhammadsiddiq (tav. 1864. Buxoro – vaf. 1932. Madina) Hashmatga tegishli bo'lgan.

U hukumat talabi bilan Buxorodagi Arkda va Chorxaros guzaridagi hovlisida yashashi lozim bo'lgan. U uy qamog'ida 35 yilga yaqin akasi va amakvachchasi tarafidan mahkum etilgan bo'lsa ham, uning hovlisi (hatto Samarqandning Mehtari Idrok guzarida hovlisi) Buxoro va samarqandlik ziyolilari va adiblari uchun doim eshigi ochiq bo'lgan. U nafqat katta kutubxona, balki ilmiy va adabiy ijod uchun bu manzillardan foydalangan.

Shu fazilatidan Hashmatni zamondoshlari bir amirzoda, badavlat, homiy, kitobsevar, ko'p ijodkorlarni qo'llab-quvvatlagan shaxs sifatida eslaganlar. XX asrning boshlarida Hashmatning uylari maorifparvarlarning bir maskani, adib va shoirlarning mahfillari joyi, umuman amir Ablulahad va Olimxonga qarshi bo'lgan barchaning bir anjumaniga aylangan edi.

Hashmat kutubxonasida 1000 jildan oshiq Sharq nodir qo'lyozmalari va yuzlab toshbosma kitoblar mavjud edi. Bundan tashqari Hashmat tazkiranavis, shoir va muarrix, kotib sifatida ham zamonasining adabiy jarayonlari va ma'naviy hayotida faol qatnashgan shaxs sanaladi.

Aytilganidek, bugungi kunda Hashmat kutubxonasida saqlangan kitoblar Toshkent, Buxoro, Dushanbe, Sankt-Peterburgda, alohida shaxslarning qo'lida saqlanadi. Ularning asosiy qismi Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'z FA Shl da saqlanmoqda.

Mirsiddiqxon Hashmatning qamoq yillari va hayoti davrida amalga oshirilgan muhim ishi ajdodlardan qolgan asarlarini to'plash va katta kutubxonasini yaratishdir. Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasi Buxoro kitob, kitobat va kutubxonachilik tarixining ajralmas bir qismi bo'lib, uning ta'siri va shuhrati o'sha davr zamondoshlari tomonidan tasdiqlangan. Jumladan, Sharifjon-Maxdumi Sadri Ziyo shunday yozgan "Baldai Foxirada (Buxoroda-Sh.T.) kitob jinsi har bobdan kamyob, hayhotki, hatto duri noyobga aylangan. Bu davru zamonda Buxoro hududida uchta joydan tashqari kitob zoti anqo kabi bo'lib, boshqa topilmaydi. Faqat hidoyat va saodatga rafiq bo'lgan Hashmat taxallusli Sayid Mirsiddiqto'rai sohibtavfiq uyida qancha mashaqqat va sa'yu ko'shish bilan shunday kitoblarga molik bo'lish saodatiga erishildi".

Sadri Ziyo-Muhammadsharifjon ibni qozi Abdushukur o'zining fehrisida bir necha marotaba Hashmat va unga tegishli bo'lgan kitob va kutubxonasi haqida yozadi. Masalan, mohir xattot Abdullohbek Yakkabog'iy haqida yozib, u kitobat qilingan nodir Qur'onning uchta nusxasidan biri Mirsiddiqxon Hashmat qo'lida ekanini ta'kidlaydi. Sadridin Ayniy ham Hashmatning benazir kutubxonasi borligini eslab: "Buxoroda biror-bir kutubxona Hashmat kutubxonasi kabi mukammal emas edi", deya xotirlaydi.

Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasining tarixiy va madaniy ahamiyati shundaki, unda bir qator nodir manbalar mavjud. Mazkur kutubxonaning tarkibi va kitoblarining taqdirini aniqlash jarayonida Buxoroning XX asr boshlaridagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning, adabiyot tarixi va ijod masalasidagi o'rganilmagan jihatlariga ham ahamiyat berish kerak bo'ladi.

ILMIY AXBOROT

Professor Shodmon Vohidov xulosasiga qraganda Mirsiddiqxon Hashmat jamlagan kitoblarning aksariyat qismi Muhammad Sharifjon-maxdumi Sadri Ziyoga harakatlarini natijasida bizgacha yetib kelgan. "Taxminimizcha, balki haqiqatan ham, Hashmat Afg'onistonga ko'chib ketishidan oldin kitoblarini Sadri Ziyoga sotgan yoki qoldirib ketgan. Sadri Ziyoga kutubxona tarkibidagi ko'p kitoblarda amirzoda muhri mavjud".

Sayid Muhammad Nosir ibni Muzaffarning Tahqiqoti Arki Buxoro" asarida ma'lumot beriladiki, Mirsiddiqxon Hashmat Buxoro sho'rolar jumhuriyati farmoni bilan "Anjumani ta'rix" a'zosi sifatida zamondoshlari Abdurauf Fitrat, Sharifjon-maxdum Sadri Ziyoga, Mullo Salimbek, Hojiy Mullo Sayid Mahmud va Sayid Muhammad Nosir bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlari bilan mashg'ul bo'lishgan.

Lekin tez orada 1922 yildagi BXShR dagi o'zgarishlar natijasida begona unsur sifatida ta'qibga duchor bo'lib, xorijga surgun qilingan.

Buxoro shaxsiy kutubxonalarning tarkibini o'rganish jarayonida qo'lyozma va toshbosma kitoblarning narxlariga diqqat berildi. Shunda ma'lum bo'ldiki, kutubxona egalari kitoblari narxini turlicha baholangan, so'zlariga qaraganda turli narx va pullarda (Buxoro tangasi, rus rubli, chervonlar, tilla tanga, BXShR pullarida) sotib olishgan.

Kitoblar narxini Sadri Ziyoga va Hashmat tomonidan ko'rsatilgan raqamlarda ko'rib chiqamiz:

Birinchi, biz Sadri Ziyoning qalamiy-qo'lyozma va toshbosma shaklida kitoblar narxi bilan tanishsak:

Sadri Ziyoga ma'lumotiga qaraganda uning kutubxonasida eng nodir va qimmatbaho nusxalar va avtograf kitoblar bu "Anvori Suhayli" (kotibi Ahmad Donish), "Tafsiri Xoja Muhammadi Porso" (muallif dastxati), "Tafsiri Husayn Voiz Koshifi" (avtograf), "Temurnomayi Hatifi", Amir Xusrav Dexlaviyning "Xamsa"-si (hoshiyasida Jomiyning "Xamsa"-si), Amir Xusrav Dehlaviy "Xamsa"-si (kotibi Hofiz Sherozi), "Devoni Hofiz Sherozi", "Rashahot" (kotib: Mirmoh ibn Abdulloh Miri Arab Yamaniy), "Ravzatus-safo"-ning yettita daftari, "Siyari Sharif" (kotib: Mirmoh ibn Mir Arab), "Sharhush-sharhi Tavzeh", Qur'oni Karim nusxalari, "Kimyoi saodat", "Majmu'ai murosilot" yoxud "Navoiy albomi", "Mullo Abdulali sharhi Viqoya" (kotib: Boyazid Bistomi), "Navodirul-vaqoe" va boshqa nodir asarlar nusxalari bo'lgan.

Shahzoda Mir Muhammadsiddiq Hashmat ba'zi kitoblari narxini shunday darajada ko'rsatgan:

Qiyoslash uchun shu davrdagi Buxoro amirligida bo'lgan ba'zi narsalarning narxini ko'rsatish bilan kitoblar haqiqiy bahosini aniqlash mumkin:

Hashmatning ma'lumotlariga qaraganda bir bosh sog'inadigan sigir 350 - 450 tanga bo'lgan. U bir nusxa asarining (№2663) oxirida oilaga sarf bo'lgan ba'zi narsalar narxini qayd qilgan: paxta puli – 9 tanga, qassob uchun – 50 tanga, qand – 20, qarz – 20, 9 dona ipakli dastro'ymol – 42,5 tanga, sham' – 15, qori Odilga (kitobfuro'sh) – 10 tanga, amir xazinasiga – 11, sigir puli – 425, 17 olchin (arshin) satin – 47 tanga, 1 satin kiyim – 20, qo'y – 48 tanga.

Sadri Ziyoga va Hashmat egalik qilgan bir nomli kitob ikki xil narxda ko'rsatilgan. Albatta, kitob narxlarini Buxoro kitob rastalarida turli omillarga qarab o'zgargan bo'lishi aniq. Lekin nimaga Sadri Ziyoga haddan tashqari kitoblari narxini sun'iy tarzda yuqori ko'rsatgan?

Birinchi, zamondoshlari nazarida Sadri Ziyoga juda sodda va ishonuvchan odam bo'lgan. Ikkita narsaga mehr qo'ygan davlatmand kishi bo'lgan. U otlar va kitob sotib olishga ishqivoz ekan. Uning otxonasida eng zotli va amir otlaridan ham zo'r bo'lgan otlar saqlangan va boqilgan. Sadri Ziyoga zotli mashhur otlar va nodir kitoblarga ega bo'lish uchun mablag'ini ayamagan. Uning bu ermagidan xabardor savdogarlar uning soddaligi va ishonuvchan bo'lganidan o'z manfaatlari uchun foydalanishgan. Ular aytilgan narxda Sadri Ziyoga otlar va kitoblarni sotib olaverarkan.

Kitob sotib olishda u pul va ustidan hadyalarni darig' tutmagan. Masalan, Subhonqulixon davrida kitob qilingan bir Qur'on nusxasi uchun 30-40 ming tanga hadya bergan. Boshqa safar bir kitob evaziga bir haj safariga sarflanadigan mablag'ni kitob egasi berganini uning fehrisida o'qish mumkin.

Qozi Inoyatulloh, Sadri Sariri Balxiy kitoblari ro'yxatidagi kitob narxlarini ko'rsatish holatlari ham kitob savdosi va narxlariga bo'lgan ba'zi muammolarni hal etishi mumkin.

Sadri Ziyoga Hashmat kutubxonasidan sotib olgan kitoblarga qancha mablag' berilgani ma'lum emas. Har holda musofirlikka ketayotgan Hashmatdek do'stiga Sadri Ziyoga yaxshi pul va

hadyalar berganligini taxmin qilish mumkin. Sadri Ziyo tomonidan kitoblari va Buxorodagi kitoblar narxini baland qilib ko'rsatishini boshqa bir sababi ham bor. Buxoro sho'rolar hukumati, keyinchalik O'zbekiston SSRning Buxorodagi namoyondalari Sadri Ziyoni katta miqdordagi kitoblarga ega bo'lganini bilganlar. XX asrning 20-30 yillarida sobiq amirlik amaldorlari va mansab egalari egalarining aksar molu mulklari musodara etilishi, ularning uy-joylari tortib olinib egalari mahkum etilishi va surgunga yuborilishidan xabardor bo'lgan Sadri Ziyo maxsus kitoblari narxini baland qilib ko'rsatgan. Chunki Sadri Ziyo, uning o'g'lining guvohlik berishicha, "tirikligimda kitoblarimni bermayman, o'lganimdan keyin kitoblarimni shunday tekin va bepul olinglar", deb aytgan ekan.

Buxoro amirligida kutubxonalar davlatniki (kutubxonai dorul-amora), Arkdagi kutubxonalar, madrasalar qoshidagi kutubxonalar hamda xususiy kutubxonalar bo'lgan. Bundan tashqari taqiqotlar natijasida amirlikning Qarshi, Shahrisabz, Samarqand, alohida shaxslar va amaldorlarning uylarida ham kutubxonalar mavjudligi aniqlangan. Tabiiyki, bu kutubxonalar qadimdan ilm va adab ahli uchun bilim maskani ham bo'lgan.

XIX-asr oxirlarida Buxoro madaniy va ilmiy muhitining yana bir ko'zga ko'ringan namoyandasi Abdulvohid Sadr "Sadr-i Sarir"-i Balxiy va Buxoriy (1233-1303/1817-1885-86), hattot, muharrir va ko'plab asarlarning muallifi bo'lgan. Uning o'g'li Ibodullaning qiziga Sadr-i Ziyoga uylangan edi. Balx viloyatining Xulm shahridan bo'lgan Abd ul-Vohid ta'lim olish uchun Buxoroga keladi va umrining oxirigacha shu yerda qoladi. "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat al-as'hob" antologiyasi muallifi Vozeh, Sadri Saririy Balxiy nomi bilan mashhur Qozi Abdulvohid tarix, tilshunoslik, tasavvuf va she'riyatga oid ko'plab kitoblar muallifi bo'lganini ta'kidlaydi. U Buxorodagi madrasalarda dars bergan, ko'pchilikka hattotlikdan saboq bergan. Muhammad Sharifjon Sadr-i Ziyo uning hattotlik va xat ilmida shogirdi edi.

Buxoroda Abdulvohid Sadri Sariri Balxiy xonadonida katta kutubxonalar bor edi. Ushbu kutubxonaning tarkibini egasi Sadri Sariri Balxiyning tuzilgan qisqa ro'yxati asosida qayta tiklash mumkin. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondidan 2260-sonli qo'lyozmaning so'nggi sahifalarida (var. 99b) o'zining arab yozuvidagi kitoblari ro'yxatini beradi. Ro'yxatda Qur'on nusxalari, tafsirlar, falsafaga oid kitoblar, grammatika, lug'atlar, adabiyotga oid kitoblar va hokazolar mavjudligini ko'rish mumkin.

Mazkur ishda muallif tomonidan shaxsiy kutubxonalar amirlikning poytaxti Buxoro, Qarshi va Shahrisabzda o'rganildi, ularning tarkibi aniqlandi. Hashmat va Sadri Ziyo qaydlari va esdaliklari orqali Buxoro shahri va amirlikdagi kitob savdosi masalalariga ham oydinlik kiritildi.

XULOSA

Ma'lum bo'ldiki, Muhammadsiddiq Hashmatning kutubxonasi Buxoroda eng mukammal va boy bo'lgan (Sadri Ziyo va Sadriddin Ayniy). Muallif O'zbekiston F.A.Sh.I dagi qayd daftarlari va katalogidagi tavsiflar orqali Hashmat kutubxonasining tarkibini aniqladi. Hashmat muhri bosilgan ko'pgina kitoblar Sadri Ziyo kitob koleksiyasi va kutubxonasidan chiqqani bois, shu xulosaga kelindiki, Hashmat hijratdan oldin ancha kitoblarini Sadri Ziyoga sotgan. Bundan tashqari, Hashmat kutubxonasiga mansub va uning muhri bosilgan kitoblar O'zbekiston FA ShI fondidan ham paydo bo'lgan.

Muhammadsiddiq Hashmat kutubxonasidagi kitoblar taqdiri va ularning izlab topish ishlari davom etmoqda.

Fikrimizcha, kitobning taqdiri ham inson taqdiriga o'xshashligini qayd etishimiz mumkin. Kitoblar ham o'z davrida jazoga tortilgan, senzura zulmiga duch kelgan, ta'qibga uchragan, hukmdorlar hukmi bilan hibsga olindi, yo'q qilindi, yoqib yuborilgan, ko'milgan.

Kitoblar turli xazina va maxsus fondlarda joylashtirilgan. Butunlay yo'q qilingan kitoblar jamg'armasi ham mavjud. Lekin shuni ham ta'qidlamok lozimki, bugun kunda ham aholining turli qatlam vakillari qo'llarida yuzlab qo'lyozma va toshbosma kitoblar mavjud. Hozir ham O'zbekistonning turli viloyat markazlari va alohida shaxslar xonadonlarida osori-atiq va nodir qo'lyozma kitoblarni uchratish mumkin.

Har bir majmuadagi arab yozuvidagi kitoblarni ajdodlarimizning ma'naviy va madaniy merosi sifatida o'rganishdan tarix sohasidagi tadqiqotlarning vazifasi deyish mumkindir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muminov A. Fonds nationaux et collections privées de manuscrits en écriture arabe de l'Ouzbékistan // Cahiers d'Asie Centrale, 1999. N 7. P. 17-39.

ILMIY AXBOROT

2. Садр-и Зия. Асоми-йи кутубхона-йи хусуси-йи кози-йи калон Садр-и Зиё // Рукопись, ИВ АН РУз. имени Абу Райхана Бируни, №-2460, л. 4^а.
3. Унинг муҳри билан китоблар топилган – Ш.Т.
4. Dodkhudoeva Larisa et Lola. Manuskrits orientaux du Tadjikistan :la collection Semenov // Cahiers d'Asie Centrale, 1999. n°7. P. 39–56.
5. Вохидов Ш. Из истории...- С. 18.
6. Садри Зиё Муҳаммадшарифчон. Тазкори ашъор. – С. 291.
7. Воҳидов Ш. Зиёи садр Бухори ва феҳрасти кутуббхонаи ӯ. – С.60 ва кейингилари.
8. Айнӣ С. Намунаи адабиёти тоҷик. – С. 274.
9. Вохидов Ш., Чориев З. Садр-и Зия и его библиотека. – С. 19.
10. Сайид Муҳаммадносир. Таҳқиқоти арки Бухоро. – С. 26.
11. Маълумот “Vahidov Sh. Erkinov A. Le fihrist catalogue de la biblioteque de Sadri Ziya:une image de la vie intellectuelle dans le Mavarannahr fin XIXe-deb. XXe s.” // Cahiers d'Asie Centrale, 1999 n 7. – P.141-174 номли мақоладан олинди.
12. Вохидов Ш. Библиотека царевича Хашмат – узника Бухарского арка. Из истории книги и книжной культуры в Бухаре в начале XX века. / Книги, библиотеки, каталоги. Книга 2. Қўлёзма. – С. 86.
13. Садр-и Зия и его библиотека. Из истории книги и книжной культуры в Бухаре в начале XX века. / Книги, библиотеки, каталоги. Книга 1. –Текст. XXXVI.
14. Садри Зиё. Фавоиди Зиёия. – Душанбе, 1998. – С. 21; Шуқури М. Садр-и Бухоро. - Техран, 2000 на языке фарси.